

INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQ VA ME'YORIY ASOSLARI**Bozorboyeva Mohiraxon****Andijon davlat pedagogika instituti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17494475>**

O'zbekistonda nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tibbiyijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularga ta'lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko'maklashish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib, xalqimizga xos bo'lgan mehr-shafqat hamda ezgulik tuyg'ularini hisobga olgan holda nogironlarning muhim ehtiyoj va talablariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"¹, 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"², 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrda PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrda PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrda 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni³ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish bo'yicha qator normativhuquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo'lagi bo'lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga ta'lim-tarbiya berish, ularning 16 sog'lom bolalar qatoridan o'rin olib o'z qobiliyati, imkoniyatlarini ko'rsata olishiga, ma'naviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrda "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son qarorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta'lim-tarbiya (shu jumladan, inklyuziv ta'lim-tarbiya) olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo'yicha alohida vazifalar qayd etib o'tilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son⁴ Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha:

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son. <https://lex.uz/docs/-3107036?ONDATE=01.05.2021>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.12.2017 yildagi PF-5270-son. <https://lex.uz/docs/-3436192>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;
- jamoatchilik o'rtasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyati haqida tushuntirish ishlarini olib borish;
- o'quvchilarning jismoniy va aqliy talab-ehtiyojidan va ta'lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini optimallashtirish;
- 17 alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inklyuziv ta'lim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

“Zamonaviy maktab”larni qurishda ushbu maktablarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo'lishi va jihozlanishini ta'minlash maqsadida inklyuziv ta'limni tashkil etish bo'yicha “Zamonaviy maktab”ga qo'yiladigan me'yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, alohida ta'lim olish ehtiyoji bo'lgan bolalar va ularning otaonalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo'naltirishda ta'lim muassasalari har tomonlama yordam ko'rsatishi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12-oktyabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida”gi Nizomda belgilab berilgan. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib borish zamon talabidir. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yordamga muhtoj bolalar davlatimizning teng huquqli a'zolari. Ularni uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha muassasalarda hamma qatori ta'lim olishi va tarbiyalanishini ta'minlash bizning asosiy vazifalarimizdan biridir. Insonlarning nogironlarga nisbatan munosabatini o'zgartirish, atrofdagilarni ularning jamiyatda to'liq va teng huquqli ishtiroki haqida xabardor qilish nogironlarning dolzarb muammolarini hal etishda o'ta muhim ahamiyatga ega. “Nogiron” tushunchasini muomaladan chiqarish va uning, eng avvalo, inson ekanligini hisobga olgan holda umume'tirof etilgan “nogironligi bo'lgan shaxs” atamasini kiritish va BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar tashkil etilishi ham quvonarlidir. O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari 18 kafolatlari» haqidagi Qonuni har bir bola o'z oilasida tarbiyalanish huquqini kafolatlaydi, bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatini belgilaydi, davlat organlarini bola huquqlarini ta'minlash bo'yicha kafolatlarini belgilaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son.
<https://lex.uz/docs/-3107036?ONDATE=01.05.2021>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.12.2017 yildagi PF-5270-son.
<https://lex.uz/docs/-3436192>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
<https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son.
<https://lex.uz/ru/docs/-4312785>